SINF RAHBARI VA FAN O‘QITUVCHILARI HAMKORLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH

Berdiyarova Maxfuza Ilhom qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 28.10.2025
Tasdiqlandi: 29.10.2025

Kalit so‘zlar:
Sinf rahbari, fan o‘qituvchisi, hamkorlik, ta’lim jarayoni, pedagogik jamoa, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, ota-ona bilan aloqa, tarbiyaviy ishlar, o‘quv motivatsiyasi, innovatsion yondashuv.

Annotatsiya. Mazkur maqolada sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi hamda uni tashkil etishning samarali yo‘llari yoritilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, sinf rahbarining pedagogik jamoada muvofiqlashtiruvchi roli, fan o‘qituvchilari bilan muntazam axborot almashinuvi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning samarali mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Ключевые слова:
Классный руководитель, учитель-предметник, сотрудничество, образовательный процесс, педагогический коллектив, развитие личности ученика, общение с родителями, воспитательная работа, мотивация обучения, инновационный подход.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность, цель и эффективные способы организации сотрудничества классного руководителя и учителей-предметников. Анализируется взаимодействие учителей в образовательном процессе как важный фактор всестороннего развития личности ученика и повышения его социальной активности. Также показана координирующая роль классного руководителя в педагогическом коллективе, регулярный обмен информацией с учителями-предметниками, учет индивидуальных особенностей учащихся и эффективные механизмы налаживания взаимодействия с родителями.

Keywords:
Class teacher, subject teacher, cooperation, educational process, pedagogical team,

Abstract. This article discusses the essence, purpose and effective ways of organizing cooperation between the class teacher and subject teachers. The interaction between

development of the student's personality, communication with parents, educational work, learning motivation, innovative approach.

teachers in the educational process is analyzed as an important factor in the comprehensive development of the student's personality and increasing his social activity. Also, the coordinating role of the class teacher in the pedagogical team, regular exchange of information with subject teachers, taking into account the individual characteristics of students and effective mechanisms for establishing cooperation with parents are shown.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash, mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli va faol fuqaroni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda maktabdagi barcha pedagogik xodimlarning, ayniqsa sinf rahbari va fan o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Chunki o'quvchilar bilan doimiy aloqada bo'ladigan ikki asosiy shaxs bu sinf rahbari va fan o'qituvchilardir. Ularning tarbiya va ta'limga bo'lgan yondashuvi, o'zaro muvofiqlashtirilgan harakati o'quvchilarning individual rivojlanishiga, ijtimoiy faolligiga, bilim olish motivatsiyasiga va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, buyuk alloma Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini shunday izohlaydi: "Tarbiyasiz xalq yo'qolgan xalqdir. Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir."[1] Bu so'zlar har bir sinf rahbari va fan o'qituvchisining zimmasidagi mas'uliyat qanchalik yuksakligini ifodalaydi.

Sinf rahbari bu nafaqat sinfdagi tartib-intizomni kuzatuvchi yoki hisobotlarni yurituvchi shaxs, balki har bir o'quvchining shaxsiy o'sishi, oilasi bilan maktab o'rtasidagi muloqot ko'prigi, tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisidir. Fan o'qituvchisi esa o'quvchi ongiga ilmiy dunyoqarashni singdiruvchi, bilish faoliyatini yo'naltiruvchi yetakchi hisoblanadi. "Sinf rahbari o'quvchi hayotining har bir bosqichida yo'lboshchi, fan o'qituvchilari esa uning bilim olamiga yo'l ochuvchi muallimdir. Ularning hamkorligi o'quvchi tarbiyasining poydevorini mustahkamlaydi."[2] Shunday ekan, ushbu ikki muhim pedagogik figurani bir maqsad sari birlashtirish ta'lim-tarbiya sifati va natijadorligining asosiy kalitidir. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab umumta'lim muassasalarida sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlik to'laqonli yo'lga qo'yilmagan, bu esa o'quvchining o'quv faoliyati va tarbiyasi o'rtasida nomutanosiblik, koordinatsiya yetishmovchiligi kabi muammolarga olib kelmoqda. Mazkur maqolada sinf rahbari va fan o'qituvchilari

[1] Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'zbekiston 1992.
[2] Yo'ldosheva, M. *Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya2020.

o‘rtasida hamkorlikni tashkil etishning samarali usullari, ular o‘rtasidagi muloqot va muvofiqlikni kuchaytirish mexanizmlari, shuningdek, bunday hamkorlikning o‘quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati tahlil etiladi.

Zamon talablari doirasida shakllanayotgan yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan yanada tizimli, samarali va natijador yondashuvlarni talab qilmoqda. Shuning uchun ham sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etishda yangicha yondashuvlar, tizimli rejalashtirish, muntazam axborot almashinuvi va birgalikda tahlil qilish faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlik masalalari zamonaviy pedagogika ilmida keng ko‘lamda o‘rganilgan. Ko‘plab olimlar hamkorlikni ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraydi. O‘zbekistonning pedagogik tadqiqotchisi, pedagogika fanlari doktori A. Tursunova hamkorlik asosida tashkil etilgan jamoaviy ishlar orqali o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va jamoaviy ruhni kuchaytirish mumkinligini ta’kidlaydi. U sinf rahbarining faolligi va fan o‘qituvchilarining ilmiy-metodik yondashuvlari birlashganda o‘quvchilarning ta’limiy natijalari yaxshilanishini ko‘rsatadi. “Bugungi kunda sinf rahbarining faoliyati nafaqat o‘quvchilarning tarbiyasini, balki pedagogik jamoaning ichki muhitini ham shakllantiradi. Shuning uchun fan o‘qituvchilari bilan hamkorlik pedagogik iqlimni barqarorlashtiradi.”[3]

Xalqaro tadqiqotlarga qaraganda pedagoglarning hamkorligi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim va tarbiya olishini samarali qiladi. Ular ta’lim muassasalarida sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi jamoaviy faoliyat va muvofiqlashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhimligini urg‘ulaydi. V. A. Suxomlinskiy shunday degan: “O‘qituvchi yuragida bola uchun mehr bo‘lmasa, u hech qachon haqiqiy tarbiyachi bo‘la olmaydi.”[4] Uning fikricha, har bir pedagogik jamoa a’zosi o‘quvchining ruhiy olamini tushunish, uni sevish va qo‘llab-quvvatlashda yagona maqsad sari harakat qilishi lozim.

Bundan tashqari, G. Sultonova pedagogik jamoaning uzviyligi va o‘zaro ishonchi sinfdagi psixologik muhitni yaxshilashda katta rol o‘ynashini qayd etadi. Uning tadqiqotlari sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida samarali muloqotning ta’lim-tarbiya jarayoniga ijobiy ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2021-yilgi “Umumta’lim maktablarida pedagoglarning professional rivojlanish strategiyasi” hujjatida ham sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida uzluksiz hamkorlik va malaka oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

[3] Yoqubova, G‘. Zamonaviy ta’limda sinf rahbarining innovatsion faoliyati. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 3(2), 45–50; 2022.

[4] Suxomlinskiy, V. A.*Yurakni bolalarga beraman*. Toshkent: O‘qituvchi 1981.

Tadqiqot muhokamasi. Ushbu tadqiqot natijalari sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi samarali hamkorlik ta’lim jarayonining sifati va o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Adabiyotlarda ta’kidlanganidek hamkorlikning muntazam va tizimli tashkil etilishi o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, shuningdek, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida samarali muloqotning yo‘lga qo‘yilishi, birgalikda tarbiyaviy va o‘quv jarayonlarini rejalashtirish o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning maktabdagi ijtimoiy muhitga tez moslashishlariga yordam beradi.

Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida birgalikda tashkil etiladigan tadbirlar, masalan, ota-onalar bilan uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari o‘quvchilar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda ham pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Sh. M. Mirziyoyev o‘z asarlarida ta’lim jarayonini zamon talablariga mos ravishda tashkil etish zarurligini ta’kidlab, shunday deydi: “Har bir o‘qituvchi o‘z kasbini sevishi, o‘zgalarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Chunki yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirishda o‘qituvchi eng muhim tayanchdir.”[5]

Shu nuqtai nazardan, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi muntazam axborot almashuvi, pedagogik maslahatlashuvlar, birgalikda tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish, o‘quvchi shaxsini kuzatish natijalarini tahlil qilish, individual yondashuvni amalga oshirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli ravishda tashkil etish ta’lim jarayonini samarali boshqarish hamda o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur ekanligini tasdiqlaydi.

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik nafaqat tarbiyaviy ishlarning muvaffaqiyati, balki ta’lim sifatining oshishi uchun ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu borada olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar asosida bir nechta muhim jihatlar yuzaga chiqdi. Avvalo, sinf rahbarining o‘z sinfidagi fan o‘qituvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lishi, ularning dars jarayonida kuzatgan o‘quvchi xatti-harakatlari, bilim darajasi va psixologik holati haqida ma’lumot almashishi o‘quvchi shaxsini to‘liq anglash va unga individual yondashuvni belgilashda katta yordam beradi. Ammo aksariyat umumta’lim maktablarida bu aloqa epizodik holatga ega bo‘lib, tizimlilik va rejalilik yetishmaydi**.** Shuningdek, sinf rahbarlari bilan fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlikda yagona maqsad va

[5] Mirziyoyev, Sh. M. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. Toshkent: O‘zbekiston 2017.

yondashuv yo‘qligi holatlari ham kuzatildi. Bu esa o‘quvchilar bilan olib borilayotgan ishlarning bir-birini takrorlashi yoki bir-biriga zid kelishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bir pedagog muayyan xatti-harakatni rag‘batlantirayotgan bo‘lsa, boshqa pedagog esa buni sust motivatsiya sifatida baholashi mumkin.

Bunday nomuvofiqliklar, ayniqsa, o‘quvchilarning psixologik holatida salbiy aks sado beradi. Yana bir muhim masala bu hamkorlikka maktab rahbariyatining munosabati. Agar rahbariyat sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida hamkorlikni tashkiliy va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlasa, bu jarayon samarali yo‘lga qo‘yiladi. Aks holda, bu vazifa faqatgina pedagoglarning tashabbusiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aynan rahbariyat faol qo‘llab-quvvatlagan maktablarda pedagogik hamkorlik yuqori natijalar bergani kuzatildi. Xalqaro tajriba ham ushbu yo‘nalishda muhim o‘rnak bo‘lishi mumkin. Jumladan, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya maktablarida pedagogik jamoa faoliyati qat’iy ichki protokollar asosida olib boriladi, har bir o‘qituvchi sinf rahbari bilan doimiy muvofiqlashtirilgan ishlarda ishtirok etadi. Bu tajriba o‘zbek ta’lim tizimi uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron jurnallar va o‘quvchi psixologik kartotekalaridan foydalanish orqali sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi aloqa va axborot almashuvini zamonaviylashtirish zarurati mavjud. Bu yondashuv hozirgi ta’lim jarayonining raqamli transformatsiyasiga mos keladi. Xulosa qilib aytganda, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish muhim

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida samarali hamkorlik ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu hamkorlik o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish, ijtimoiy moslashuvini ta’minlash hamda maktabdagi psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali hamkorlikka erishish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida ochiq va tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- o‘quvchilarni chuqur tahlil qilish asosida birgalikda pedagogik reja tuzish;
- tarbiyaviy tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ota-onalar bilan ishlashda yagona yondashuvga ega bo‘lish;
- maktab rahbariyati tomonidan hamkorlikka rag‘bat va metodik ko‘mak ko‘rsatilishi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, pedagoglarning axborot almashinuvidagi faoliyati va ularning metodik savodxonligini oshirish orqali bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Xulosa qilib aytganda, sinf rahbari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida uzviy, tizimli va natijador hamkorlikka asoslangan yondashuv umumta’lim maktablarida nafaqat o‘quvchilarning ta’lim-

tarbiya jarayoniga, balki butun pedagogik jamoaning faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. Toshkent: O'zbekiston.
2. Avloniy, A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'zbekiston.
3. Suxomlinskiy, V. A. (1981). *Yurakni bolalarga beraman*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Yo'ldosheva, M. (2020). *Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Yoqubova, G'. (2022). Zamonaviy ta'limda sinf rahbarining innovatsion faoliyati. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 3(2), 45–50.
6. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini oshirishga xizmat qiluvchi omillar; Pedagogika OAK jurnali. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal; Toshkent, 2024 6-son
7. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I**.** Methodology of Spiritual Education in Primary E;IF (импакт-фактор)12,38 / 2024; American Journal of Alternative Education ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE; 113-116 betlar
8. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Spiritual Qualities of Primary School Students;IF (импакт-фактор)12,43 / 2024 Excellencia: international multi-disciplinary journal of education https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje 290-294 betlar.
9. Primova, M. (2024). INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS OF CHARACTER EXPRESSION IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Академические исследования в современной науке*, *3*(5), 130-134.
10. Pirimova, M., Torambetov, B., Kadirova, S., Ziyaev, A., Gonnade, R. G., & Ashurov, J. (2022). Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of a zinc (II) coordination polymer of 5-phenyl-1, 3, 4-oxadiazole-2-thiolate. *Structure Reports*, *78*(8), 794-797.
11. Pirimova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvraev, E. R. (2023). Co (II) VA V (V) NING 5-(FENIL)-1, 3, 4-OKSADIAZOL-2-TION ASOSIDAGI ARALASH METALLI KOMPLEKS BIRIKMASINI ANTIOKSIDANTLIK FAOLLIGINI O 'RGANISH. *2020, No. 1 (119/2)*, *119*(90), 5-9.
12. Primova, M. A. Kadirova Sh. A., Ziyayev AA, Buvrayev ER Co (II) va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o'rganish. *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi-2020 yil*.

13. Primova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvrayev, E. R. (2020). va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o'rganish.

14. Нуралиева, Г. А., & Пиримова, М. А. Universum: Химия и биология: электр. научн. журн. 2020. № 2 (68).

15. PIRIMOVA, M. A., KADIROVA, S. A., & ZIYAYEV, A. A. (2025). Synthesis and study of complex compounds with 1, 3, 4-oxadiazole derivatives based on ammonium vanadate. *Chemistry and chemical engineering*, *2024*(4), 5.

16. Abdukhakim, Z., & Mehribon, P. (2025). SYNTHESIS, CRYSTAL STRUCTURE AND HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS OF A 2–CARBOXYMETHYLTHIO-5-PHENYL-1, 3, 4-OXADIAZOLE. *Universum: химия и биология*, *4*(6 (132)), 31-35.

17. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.

18. Саидов, С. С., Исмаилова, Д. С., & Абдуразаков, А. Ш. (2025). СИНТЕЗ АЗОМЕТИНОВ И АМИДОВ В РЯДУ 1, 3, 4-ОКСАДИАЗОЛОВ. *Universum: химия и биология*, *3*(6 (132)), 23-28.

19. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.